**TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHAR HOKIMINING**

# QARORI

2026-yil 13-may | 98-10-148-Q/26 | Angren shahar hokimligi

**Angren shahri hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, $21^1$-moddalari va “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalari talablariga asosan, Angren shahri hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Angren shahar Ichki ishlar boshqarmasining 2025-yil 8-noyabrdagi 25/27-1768-sonli xati inobatga olinsin.

2. Angren shahri hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Angren shahar Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Zoxidov):

- mazkur qaror bilan tegishli joylarga yo‘l belgilarini o‘rnatilishini tashkil etsin hamda ushbu hududlarda avtotransport vositalari harakatini nazorat qilib borsin.

4. Mazkur qaror “Angren haqiqati” va “Ангренская правда” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Angren shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev hamda Angren shahar Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i A.Mirxodjayev zimmalariga yuklansin.

**Angren shahar hokimi**  **A.A.Rayimov**

Angren shahar hokimining
2026-yil 13-maydagi
98-10-148-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Angren shahri hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatiladigan yo‘l belgilari va ularning ta’sir hududlari**

| T/r | Yo‘l belgisi o‘rnatilgadigan ko‘cha (chorraha, harakat yo‘nalishi) | Yo‘l harakati qoidalarining 1-ilovasiga muvofiq o‘rnatiladigan yo‘l belgisi |
|---|---|---|
| 1. | “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tunu-kun faoliyat ko‘rsatuvchi savdo, ko‘ngilochar, gastronomik, turizm va san’at yo‘nalishlariga ixtisoslashgan ko‘chaga Ibn Sino ko‘chasidan kirish qismiga | 3.1. (kirish taqiqlangan) |
| 2. | A-373 “M-39 – Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lidan Qorabog‘soy ko‘chasiga kirish qismiga | 3.4. (Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan) |
| 3. | A-373 “M-39 – Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lidan Istiqlol ko‘chasiga kirish qismiga | 3.4. (Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan) |
| 4. | A-373 “M-39 – Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lidan Alisher Navoiy ko‘chasiga kirish qismiga | 3.4. (Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan) |
| 5. | A-373 “M-39 – Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lidan Tahririyat ko‘chasiga kirish qismiga | 3.4. (Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan) |